

"SEVGIM, SEVGILIM" QISSASIDA QAHRAMONLAR TASVIRI

Ergashova Marjona

TerDU, 3- bosqich talabasi
ergashovam239@ gmail.com

Annotatsiya: O'tgan asrda o'zining yangicha uslubda yozilgan asarlari o'zbek adabiyotiga bilan kirib kelgan mahoratli yozuvchi O'lmas Umarbekov ijodiy faoliyati davomida juda ko'plab asarlar bilan kitobxonlarni siyladi. Uning qalamiga mansub "Odam bo'lish qiyin", "Fotima va Zuhra" romanlari, "Sevgim- sevgilim", "Kimning tashvishi yo'q", "Urush farzandi" kabi qissalari barchamizga tanish. Ushbu maqolada yozuvchining "Sevgim- sevgilim" qissasidagi qahramonlar, ularning ruhiyati, asardagi fojia tasviri hamda badiy tasvir vositalaridan: portret, peyzaj, detallar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: "Sevgim-sevgilim", detektiv asar, adabiy portret, detal, qahramon tavsifi, Oypopuk, O'ktam, Mavlon, Usmon.

Abstract: The talented writer Olmas Umarbekov, who entered Uzbek literature with his works written in a new style in the last century, has gifted readers with many works during his creative career. His novels "It is difficult to be a person", "Fatima and Zuhra", and stories such as "Love is my beloved", "Who has no worries", "Son of war" are familiar to all of us. This article analyzes the characters in the writer's story "Love is my beloved", their psyche, the depiction of tragedy in the work, and the means of artistic depiction: portrait, landscape, details.

Keywords: "My Love-My Beloved", detective work, literary portrait, detail, description of the hero, Oypopuk, Oktam, Mevlon, Osman.

.Аннотация: Талантливый писатель Олмас Умарбеков, вошедший в узбекскую литературу в прошлом веке произведениями, написанными в новом стиле, за годы своего творчества подарил читателям множество произведений. Его романы «Трудно быть человеком», «Фатима и Зухра», повести «Севгим-севгилим», «Кимнинг антёги ёк» и «Уруш фарзнди» знакомы каждому из нас. В данной статье анализируются персонажи повести писателя «Севгим-севгилим», их психика, изображение трагизма в произведении, а также средства художественного изображения: портрет, пейзаж, детали.

Ключевые слова: «Севгим-севгилим», детективное произведение, литературный портрет, деталь, характеристика героя, Ойнопук, Октам, Мавлон, Осман.

Adabiyot tom ma'noda "xarakter yaratish san'atidir". Bugungi kunga kelib, adabiy asarlarda mavzu va ko'lam, shakl va mazmun turlicha ko'rinishlarda ifodalanmoqda. O'zbek adabiyotiga ilk detektiv yo'nalishdagi asarning kirib kelishiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan yozuvchilardan biri O'lmas Umarbekovdir. Adibning "Hayot abadiy" (1964), „Charos“ (1966), „Ko‘prik“ (1968), „Bolgar qo‘shiqlari“, „Oltin yaproqlar“ (1972), „Qiyomat qarz“ kabi hikoyalarda kishilarning ma'naviy-axloqiy go'zalligini tasvirlashga, insonning jamiyat va tabiat oldidagi burchini, mas'uliyatini ko'rsatish asosiy o'rinsa tursa, „Sevgilim —

sevgilim“ (1963), „Kimning tashvishi yo‘q“ (1965), „Urush farzandi“ (1972), „Yoz yomg‘iri“ (1973), „Oq qaldirg‘och“ (1974) va boshqa qissalari janriy rang-barangligi, qahramonlar ruhiy olamining teranligi, badiiy tasvir usullarining takrorlanmasligi hamda ifoda uslubining yorqinligi va soddaligi bilan ajralib turadi. „Odam bo‘lish qiyin“ (1970) va „Fotima va Zuhra“ (1994) romanlarida yoshlar, kishilarning xulq-atvorida ko‘ringan salbiy jihatlarni tasvirlash orqali sovet kishisiga xos bo‘lgan xususiyatlar ochiq tasvirlangan.

"Sevgim, sevglim" qissasi 1963-yilda yozilgan bo‘lib, asarning bosh mavzusi insoniy munosabatlarning asosini ishonch tashkil etishidir. Muhabbat ulug‘ ne‘mat. U g‘arib ko‘ngillarni obod, tog‘dek ko‘ngillarni vayron qiladi. Uni qadrlagan dil baxtiyor, tutib qololmagani armonga nishon bo‘ladi. "Sevgiga ishonish kerak, ishonish va ishonish..." - bu hayqiriq butun insonlarni muhabbatni qadrlashga indaydi, zero "so‘nggi pushaymon o‘zingga dushman" bo‘lmasligi uchun ham insoniy munosabatlar har qanday shubha va gumonlardan holi bo‘lishi maqsadga muvofiq. O‘lmas Umarbekov o‘zining „Sevgim -sevgilim" nomli qissasida muhabbatning sof tuyg‘ularini mahorat bilan qalamga olgan. Inson uning bilan kim bo‘la olishi-yu usiz kim bo‘lishini badiiy bo‘yoqlarda tasvirlagan. Bir-birini mutlaqo tanimaydigan ikki yosh: endi institutni tugatgan agronom O‘ktam, qalbi jismiga monand bo‘lgan Oypopuk o‘rtasidagi sof, samimiy tuyg‘ularni ko‘rsatib berish va yoshlarning ayanchli taqdiri orqali insonlarni, eng avvalo, o‘zini tushunib yetishga undashdir. Asar o‘sha davrda yaratilgan asarlardan o‘zining qahramonlar orzusiga yetmay, umidbaxsh sadolar bilan tugamasligi bilan ajralib turadi. Badiiy asardan ko‘zlangan maqsad ham aslida, hayot murakkablik va qiyinchiliklarga to‘la hamma narsa ham biz kutgandek bo‘lmasligi mumkinligini kitobxonlarga tushuntirishdir. Asarning asosiy g‘oyasi inson o‘zi ko‘ngil qo‘ygan insonga doimo ishonishi kerak, chunki bu yo‘ldan yurmagan insonlar oxir- oqibatda hayot yo‘llaridagi qiyinchiliklardan o‘ta olmaydi. "Sevgim-sevgilim" qissasi orqali o‘zbek adabiyotiga fojia kirib keldi hamda asarda realizm unsurlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Muallif asarning boshlanish qismida O‘ktam va uning hayotini tasvirlar ekan, uning onasi yoshligida vafot etganini, hayotida yagona mehribon insoni otasi ekanligi va uning qalbida baribir bir kemtik borligini:

"Shuning uchun bo‘lsa kerak, otamning menga bo‘lgan munosabatida ikki kishining mehrini his qilardim. Tarbiyamga bu ta’sir qilmay qolmadi, albatta. Mendagi ikkilanish, hadiksirash kabi illatlar, balki shuning oqibatidir?" - deb ifodalaydi. O‘ktam - tarbiyali o‘z ishini yaxshi bajaradigan mahoratli mutaxassis, lekin unda muhabbatni his etish uchun ichki sezgilar yetishmaydi. Vaqt- shafqatsiz hakam, inson hayotida qilgan bir xatosi unga butun umr vijdon azobi bo‘lib qolishi ham mumkin. Xalqimizda: "Vaqt -hamma narsaga davo"- degan ajoyib maqol bor, insonda ba’zida shunday dardlar bo‘ladiki, u vaqt o‘tishi bilan tuzalmaydi, balki yanada avj oladi:

"Oradan olti yil o‘tdi. Hayot butunlay o‘zgarib ketdi. Necha yillab berk turgan derazalar ochilib, uylar saxiy quyosh nuriga ko‘mildi. Ishonch! Inson ishonch bilan tirik. Unga ishonish kerak. Agar unga ishonilmasa, falokat yuz beradi. Afsuski, men buni kech tushunib yetdim. Mendaqalar esa ozmidi?" - O‘ktam tilidan aytilgan ushbu gap asarning xulosasini tashkil etadi. Hayotda mukammal munosabatlar bo‘lmaydi, qayerdandir insonni yo‘ldan ozdiruvchi kuchlar paydo bo‘lib yo‘ldan adashtiradi. Bir minutda inson hayotida tub burilishlar sodir bo‘lib, xuddi Oypopukning taqdiriga o‘xshab qolishi ham mumkin. Oypopuk- Usmon akaning yakka- yu

yagona qizi. Uning tabiatida yumshoqlik, insonlarning ko'nglini og'ritmaslik uchun harakat kuchli edi. Oypopuk quvnoq, har narsadan faqat yaxshilikni qidiradigan, eng muhimi otasining oldidagi burchini doimo his qiladigan qat'iyatli qahramon edi, uning bu xislatini otasi uchun, hattoki sevgisidan ham voz kechishga tayyor ekanligida a'yon bo'ladi:

"Dadamlar-chi? U kishi mening tug'ishgan otam emas. Lekin men uchun tug'ishgan otamdan ham aziz. Tashlab ketolmayman. Xuddi menga o'xshab, u ham yolg'iz. Meni deb hatto turmush qurmagan. Men ham o'zimni unga bag'ishlamoqchiman. Buning uchun men hamma narsadan, sevgimdan ham, baxtimdan ham voz kechishim mumkin".

"Sevgim- sevgilim" qissasi ikki yosh: O'ktam va Oypopukning sof muhabbatini tasvirlashi bilan birgalikda o'sha davr muhiti, odamlar qiyofasidagi o'zgarishlar, insondagi tushunib bo'lmas kuchlar haqida ham hikoya qiladi. Muhabbat- ikki kishining bir- biriga bo'lgan moyilligi, qalbdagi nozik tuyg'uni ifodalaydi. Asarda esa insonning hayot yo'lida har qanday vaziyatlarda ham yonida turadigan, hech qanday dalilsiz unga ishonadigan insonni uchratishi haqiqiy baxt deb qaralgan. Oypopuk O'ktamni xafa qilishdan qo'rqib, doim uning gaplarini, qarorlarini hurmat qiladi, lekin eng qiyin vaziyatda O'ktam uning otasi aybsiz ekanligiga ishonmaydi. Shu tufayli asar oxiri- fojia Oypopukning o'limi bilan tugaydi. Zero, o'zaro munosabatlarning mustahkamligi ikki tomonning bir-biriga bo'lgan ishonchiga bog'liq.

O'mas Umarbekov "Sevgim- sevgilim" qissasida adabiy portretni yaratishda detallardan unumli foydalangan. Badiiy asarga olib kirilayotgan hamma unsurlar birgalashib, aniq bir maqsadga, ya'ni xarakterni ochishga xizmat qiladi. Shular qatori badiiy asarda uchragan detallar ham xarakterni ochish uchun xizmat qiladi. Rus adabiyotshunosi S. Antonov detalga quyidagicha ta'rif beriladi: "Detal – san'at asari uchun misoli gavhar"³. Badiiy asarda detal qahramon ichki va tashqi portretini yaratish va asarga kolirit berishga ham xizmat qiladi. "Sevgim- sevgilim" qissasida esa Yakkachinor daraxti detal vazifasini bajargan. Bizga ma'lumki, chinor daraxti uzoq umr timsoli, uning yakkaligi esa hayot yo'lida eng yaqin kishilaridan judo bo'lgan insonni ifodalaydi. Qissada O'ktam obraziga uyg'unlikda chinor tasvirlangan, ya'ni O'ktam ham Oypopukdan ayrilib chinorga o'xshab yolg'iz qoladi. Lekin bu asarda chinor qishloq xalqi uchun vafo va sadoqat timsoli edi, chunki o'z ayolining qadriga yetmay boshqa joyga ketgan inson oxir - oqibatda aybini tushunib, uyiga qaytib keladi, lekin ayoli uni kechirmaydi. O'ktam ham o'z qilgan xatosi tufayli butun umr vijdon azobida qiynalib, Oypopukni chin ko'ngildan yaxshi ko'rganligini tushunib yetadi.

Qisqa qilib aytganda, badiiy asar o'z oldiga qo'ygan muayyan holatni o'quvchiga ko'rsatish orqali undan "qissadan hissa chiqarish" kerakligini tushuntiradi. Tom ma'noda "Sevgim - sevgilim" qissasi ham yoshlarni hayotda to'g'ri qaror chiqarishga hamda oxirida qilgan ishidan afsuslanmasligi uchun, eng avvalo, inson deb ataluvchi buyuk yaratiq o'z his-tuyg'ularini hurmat qilishi hamda har bir qilgan ishining oxirini o'ylashi kerakligi haqida bizga dars beradi. Qissadan har bir kitobxon turlicha xulosalar chiqaradi, zero insonlar bir-birining qalbiga nazar solmay, insoniy xislatlarni tushunmay yashasa, uning badali asar qahramoni O'ktamga o'xshab vijdon azobi bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.<https://book.uz/books/details/sevgimsevgilim>.
 - 2.https://teletype.in/@bookvamper/RiD2lg_EW
 - 3.<https://inlibrary.uz>.
 4. O'. Umarbekov. Tanlangan asarlar.- Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
 - 5.I. Sulton. Adabiyot nazaryasi. –T.: O’qituvchi nashriyot –Matbaa ijodiy uyi, 2005. 6.T. Boboev. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O’zbekiston, 2002. 7. Q. Yo'ldosh. So'z yolqini. - Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2018.
- <https://book.uz/books/details/sevgimsevgilim>